MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA SAMARQAND TARIXINI SODDALSHTIRIB, BOLALARDA YASHAYOTGAN ZAMINIMIZGA HURMAT VA EHTIROM TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Dildora Isayeva Sodikovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi assistenti
isayevad78@gmail.com
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi
Hamrayeva Maftuna Elmurodovna

Annotasiya: Maktabgacha yosh davri bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bolalarga o‘z yurtining tarixi va madaniy merosi haqida sodda, tushunarli tarzda ma’lumot berish ahamiyati, qadimiy boy tarixga ega bo‘lgan Samarqand shahri haqida hikoyalar o‘qib berish, o‘yin va ko‘rgazmali vositalar orqali bayon etilgan

Kalit so‘zlar: Samarqanddagi tarixiy obidalar, Registon maydoni, Shohi zinda majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi, haqida sodda she’r qo‘shiqlar, rolli o‘yinlar, bolalarga tarixiy qahramonlar rolini bajaraish.

KIRISH

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to‘tgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Milliy qadriyatlar deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an’anasi, fazilatlari, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e’zozlanishga loyiq bo‘lgan inshoatlar, milliy kiyimlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ro‘zg‘or tutishlari aytiladi. Masalan, o‘zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo‘stligi xushxulqligi va muloyimligi, g‘ayratli va itoatgo‘yligi, turli toifadagi odamlar bilan o‘zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi, mulohaza va tafakkur bilan ish ko‘rishi, tinchliksevarligi o‘zbek milliy qadriyatlari bo‘lib hisoblanadi.

Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasida shunday dedi. “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. O O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2018-yillarda qator g‘oyalar va

tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy ilmiy tadqiqot markazi va Toshkentda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilish to‘g‘risida davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari habul qilindi. Buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy-ma’rifiy meroslarini o‘rganishdan tashqari, ushbu muassasalarning asosiy vazifasi yoshlarni buyuk va shonli o‘tmishga hurmat hamda iftixor bilan qarash, ulug‘ ajdodlarga munosib avlod bo‘lishga, ilm va ma’rifat olishga intilish ruhida tarbiyalashdan iborat. Maktabgcaha ta’lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuxratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o‘rganish, munosib baholash borasidagi tarbiyachilarimizning faoliyatlari katta axamiyatga ega.

Samarqand shahri haqida bolalarga mashg‘ulot davomida tushunchalar berib borish:

- bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega;
- birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi;
- o‘z tashabbusi, topog‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi.

Bolalar oldiga umumiy zo‘r berishning talab etuvchi vazifa qo‘yilganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi:

- ekskursiyalar;
- rasm qirqib yopishtirish;
- qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish;
- umumiy raqs-o‘yinlarini ijro etish;
- badiiy asarlarni eshitish;
- O‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi;
- m‘ashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi;
- javobgarlik hissi;
- o‘zini tuta olish;
- mehnat qilishga intilish odati;
- topshirilgan ishni bajarish kabi to‘g‘ri sifatlar hosil qilinadi.

Xulosa

Samarqand O‘zbekistonning markazida joylashgan bo‘lib, subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Bu shaharga tashrif buyurish va uning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish uchun ajoyib vaqt bahor yoki kuz faslidir.

Tarix. Samarqand shahri 2750 yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, u Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim savdo markazi bo‘lgan.

Arxitektura yodgorliklari. Shaharda Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi kabi tarixiy yodgorliklar mavjud.

Tabiiy boyliklar. Samarqand shahri atrofida 13 ta katta bog‘ bo‘lib, ularning eng kattasi shunchalik keng ediki, tarixga ko‘ra, bir kuni shu bog‘da yo‘qolgan ot bir oy davomida qidirilgandi.

Zamonaviy Samarqand. Samarqand — O‘zbekistonning uchinchi yirik shahri bo‘lib, u yerda 500 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Samarqandning ramzlari. Samarqandning ramziga aylangan narsa — Afrosiyob bo‘lib, u Samarqandning qadimiy qoldiqlari, uzoq asrlar davomida 10–15 metr chuqurlikda ko'milgan arxeologik qazilmalaridir.

Samarqandning mashhur shaxslari. Samarqanddan yetishib chiqqan buyuk shaxslar orasida buyuk matematik va astronomlar — Al-Xorazmiy va Al-Farg‘oniylar ham bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б

2. Qandiya qadimiy Samarqand tarixi, Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlangan 2007 Komilxon Kattayev.

3. Samarqand madrasalari ilmi-fan rivoji Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlangan 2007 Komilxon Kattayev.

4. Guri Amir maqbarasi tarixi Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlangan 2007 Komilxon Kattayev.